INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIMDA SAN'AT MARKAZLARI ASOSIDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Saidov Sohib Sharipovich
sohib.1992saidov@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada inklyuziv maktabgacha ta'limda san'at markazlari asosida bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. San'at faoliyatining bolalarning estetik idroki, ijodiy tafakkuri, tasavvuri, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, san'at markazlarini tashkil etishda individual va differensial yondashuv hamda integrativ faoliyatning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, estetik madaniyat, san'at markazi, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, integrativ faoliyat, individual yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования эстетической культуры детей на основе художественных центров в инклюзивном дошкольном образовании. Раскрывается важность художественной деятельности в развитии у детей эстетического восприятия, творческого мышления, воображения, коммуникативных навыков и социальной активности. Также анализируются индивидуальные и дифференцированные подходы к организации художественных центров и педагогические возможности интегративной деятельности.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дошкольное образование, эстетическая культура, художественный центр, эстетическое воспитание, творческое мышление, интегративная деятельность, индивидуальный подход.*

Annotation. *This article discusses the issues of forming children's aesthetic culture on the basis of art centers in inclusive preschool education. The importance of art activities in the development of children's aesthetic perception, creative thinking, imagination, communication skills and social activity is revealed. Also, the individual and differential approaches to organizing art centers and the pedagogical possibilities of integrative activities are analyzed.*

Keywords: *inclusive education, preschool education, aesthetic culture, art center, aesthetic education, creative thinking, integrative activities, individual approach.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish va har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash dunyo pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’limning rivojlanishi barcha bolalarning, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega tarbiyalanuvchilarning teng imkoniyatlar asosida ta’lim olishi va shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Maktabgacha yosh esa bolaning intellektual, axloqiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda shakllangan estetik qarashlar keyingi ta’lim bosqichlarida shaxsning dunyoqarashi va madaniy saviyasini belgilab beradi.

Jahon pedagogikasida estetik tarbiya va san’atning shaxs rivojlanishidagi o‘rni L.S. Vygotskiy, J.Piaget, H.Gardner kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular san’at faoliyati bolaning tafakkuri, tasavvuri, emotsional olami, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ilmiy asoslab berganlar.

Asosiy qism

Maktabgacha yosh davri inson shaxsining jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning borliqni idrok etishi, go‘zallikni his qilishi, badiiy didi, ijodiy tafakkuri va estetik qadriyatlari shakllana boshlaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida estetik tarbiya bolani har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida esa estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki san’at faoliyati alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydigan samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Estetik madaniyat faqat san’atni tushunish bilan cheklanmaydi, balki insonning kundalik hayotdagi xulq-atvori, muomala madaniyati, mehnat faoliyati va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha yosh davridan boshlab bolalarda estetik madaniyatni shakllantirish ularning keyingi ma’naviy kamoloti va ijtimoiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Inklyuziv guruhlarda san’at markazini tashkil etishda rivojlantiruvchi muhitning moslashuvchanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda didaktik materiallarni tanlashi, mashg‘ulotlarni differensial tashkil etishi va har bir bolaning faol ishtirokini ta'minlashi zarur. Bunday yondashuv estetik madaniyatni shakllantirish bilan birga bolalarda o‘zaro yordam, bag‘rikenglik, hamkorlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim fazilatlarni ham rivojlantiradi. San’at markazining yana bir muhim pedagogik afzalligi uning integrativ xarakterga egaligidadir. Ushbu markaz faoliyatida tasviriy san’at, musiqa, teatr,

konstruktorlik va badiiy adabiyot elementlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Natijada bolalarda estetik idrok, ijodiy tafakkur, nutq, muloqot, tasavvur va hissiy sezgirlik bir vaqtning o‘zida rivojlanadi. Ayniqsa, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar inklyuziv guruhlarda bolalarning birgalikdagi faoliyatini kuchaytirib, ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Bu jarayonda quyidagi texnologiyadan foydalanish pedagogning tezroq maqsadga erishishiga imkon beradi: maqsadli, mazmuniy, protsessual va natijaviy komponentlar. Bu jarayonda inklyuziv maktabgacha ta’limda san’at markazlari asosida estetik madaniyatni shakllantirish samaradorligini baholash metodikasi kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyat mezonlaridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv maktabgacha ta’limda san’at markazlaridan foydalanish bolalarning estetik madaniyati, ijodiy tafakkuri, tasavvuri va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. San’at markazlarida tasviriy san’at, musiqa, teatr va badiiy faoliyatlarning uyg‘unlashuvi bolalarning individual imkoniyatlarini namoyon etishiga hamda tengdoshlari bilan faol hamkorlik qilishiga imkon beradi. Mazkur jarayonda individual va differensial yondashuvdan foydalanish estetik tarbiya samaradorligini oshiradi. Shu bois san’at markazlarini inklyuziv maktabgacha ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. *Pedagogicheskaya psixologiya*. — Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Piaget J. *The Psychology of the Child*. — New York: Basic Books, 1969.
3. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. — New York: Basic Books, 1983.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
5. UNESCO. *A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education*. — Paris, 2017.